

ANTROPOMORF METAFORALAR MUALLIF REALIYASINING IFODACHISI SIFATIDA

Xolnazarov Umid Erkinovich

TerDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, tayanch doktoranti

E-mail: xolnazarovu@tersu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada T.Murod qissalari antropotsentrik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, yozuvchi realiyasi inson tafakkurida sodir bo'ladigan murakkab kognitiv jarayonni metaforik xarakterdagi Cobrazli ifoda, tasviriy vositalar orqali "inson→borliq" va "borliq→inson" munosabatlari asosida aks ettirishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: metafora, antropotsentrik metafora, nutqiy voqelanish, ong va tafakkur in'ikosi, muallif realiyasi, obrazli ifoda, tasviriy vosita, obrazli ifodalarning mushtarakligi.

ANTHROPOMORPHIC METAPHORS AS AN EXPRESSION OF THE AUTHOR'S REALITY

ABSTRACT

In the article, T. Murad's short stories are analyzed from an anthropocentric point of view, and the writer's reality is reflected in the reflection of the complex cognitive process that takes place in human thinking through figurative expressions of a metaphorical nature, pictorial means based on the relations "human → being" and "being → human".

Key words: metaphor, anthropocentric metaphor, discourse realization, perception of consciousness and thinking, author's reality, figurative expression, figurative means, commonality of figurative expressions.

АННОТАЦИЯ

В статье рассказы Т. Мурада анализируются с антропоцентрической точки зрения, а реальность писателя находит свое отражение в отражении сложного познавательного процесса, происходящего в мышлении человека, через образные выражения метафорического характера, изобразительные средства, основанные на отношениях «человек → бытие» и «бытие → человек».

Ключевые слова: метафора, антропоцентрическая метафора, дискурсивная реализация, восприятие сознания и мышления, авторская реальность, образное выражение, образные средства, общность образных выражений.

Shuni e'tirof etish kerakki, XXI asrda til o'zining yangi sifat bosqichiga ko'tarildi, oqibatda lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishida inson omili masalasi ustuvorlik qila boshladi. Bu esa lisoniy hodisalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy asoslarini o'rganishda antropotsentrik metafora (bevosita insonning ichki va tashqi sifatli belgilarini o'xshash referentlarga ko'chiruvchi metafora)ni tadqiqi zaruratini oqlaydi. Darhaqiqat, aksariyat tadqiqotlarda metafora insonning olamga munosabati, borliqni anglash va uni tilda aks ettirish, tilni uning sohibi bo'lmish inson va u mansub bo'lgan etnos bilan uzviylikda o'rganishning asosiy usullaridan biri sifatida qaraladi.

Agar antropotsentrizm ildizlari V.fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, L.Vaysgerber kabi olimlarning qarashlariga taqalsa, xususan, V.fon Gumboldtning tilni xalq ruhini akslantiruvchi hodisa sifatida tushunishi, L.Vaysgerberning olam lisoniy manzarasiga doir nazariyasi, qolaversa, o'zbek tilshunosligida XX asrning oxirlarida tilni antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishda A.Nurmonov, N.Mahmudov, D.Xudayberganova, D.Ashurova, Sh.Safarov kabi tilshunoslarning nazariy qarashlari antropotsentrik tilshunoslikning yuzaga kelishiga zamin hozirladi [Xudoyberganova, 2020:4]. Binobarin, betakror obrazlar yaratishda tilning nozik semantik imkoniyatlarini o'z badiiy niyatiga yo'naltirgan T.Murod qissalarini antropotsentrik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, yozuvchi realiyasi inson tafakkurida sodir bo'ladigan murakkab kognitiv jarayonni "inson→borliq" va "borliq→inson" munosabatlari asosida "tilning faol bunyodkorligi hamda borliq – ong va tafakkur in'ikosi" [Shirinova, 200:48] sifatida idrok etishga yorqin namuna bo'la oladi.

Darhaqiqat, barcha metaforalar antropotsentrik mohiyatga ega. Negaki, metaforalar inson tomonidan kashf etiladi va shu nuqtayi nazardan metafora til singari antropotsentrikdir. Shu sababli antropotsentrik metaforani muallif realiyasining ifodachisi deb olamiz.

Til borliqni tasvirlash va tasniflash, uni ongda yaxlit sistema sifatida aks ettirish vositasi bo'lib, so'z ma'nosida borliq manzarasi lavhalari aks etadi. Ayni paytda, til, madaniyat va shaxs mushtarakligi asosan metaforada ko'zga tashlanadi. Har bir inson – alohida realiya: har bir ijodkor uslubi, ya'ni idiolektning, uslubiy bayonining namoyishchisi sifatida metafora obrazli ifoda, tasviriy vositalarda o'z aksini topadi. Bunda metaforik ifodaning hosil bo'lishida insonga xos qaysi belgi asos bo'lganligini aniqlash muhim. Buni biz bazaviy metafora turi – antropomorf metafora (insonga xos

belgilarning, somatik kodlarning predmetlarga ko‘chirilishi) ni tasniflash orqali tushuntirmoqchimiz [Narzullaeva, 2019]:

I. Insonning biologik hodisa sifatidagi xususiyatlari asos bo‘lgan metaforik ma’no. Bu quyidagi ichki bo‘linishlarni o‘z ichiga oladi:

1.1. Insonning tana a‘zolari asos bo‘lgan metaforik ma’nolar:

KO‘Z Nazar, nigoh; qarash (O‘TIL, 2-jild). Xuddi shu daqiqada *ko‘zlar uchrashib qoldi!* Bo‘ri polvonga o‘sha qop-qora ko‘zlar tik-tik boqdi. O‘sha *ma’nosiz ko‘zlar*, o‘sha *bez ko‘zlar* Bo‘ri polvon uchun qanchalik jirkanchli bo‘lsa, shunchalik *qadrdonda* edi! T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi. *Kattaning ko‘zi ko‘kragimga tushsa*, o‘zi tushunib oladi, deya o‘yladi. T.Murod, Momo er qo‘shig‘i. **2. Ko‘rish qobiliyati** (O‘TIL, 2-jild). Yo‘g‘e, u ko‘pkarida otdan yiqilib, bir *ko‘zi ojiz* bo‘p qolgan, deb eshitib edim. (Yulduzlar mangu yonadi) Xo‘sh-xo‘sh deymen, olabosh, *Ko‘zing o‘tkir*, qalamqosh. Qalam qoshing suzilsin, Suting erga sizilsin. (Momo er qo‘shig‘i)

Shuningdek, T.Murod badiiy nutqida, ayniqsa, qissalarida ko‘z bilan bog‘liq boshqa metaforik ifodalar ham o‘rin egallagan:

Ko‘z-quloq bo‘lmoq – juft so‘z ko‘rinishidagi frazeologik metafora (FM) bo‘lib, “kuzatmoq”, “xabardor bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalaydi: Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol to‘yxonadagi voqealardan *ko‘z-quloq bo‘ldi*, tegishli yo‘l-yo‘riqlar berdi. (Yulduzlar mangu yonadi) — Unda, hozircha *ko‘z-quloq bo‘lib* turing, hidlanmasin. (Ot kishnagan oqshom) Bolalar magnitofon qo‘yib keldi. Shoirlar bildi, odam o‘g‘illarini *ko‘z-quloq bo‘lib* turish uchun yubordi. (Momo er qo‘shig‘i)

Ko‘z-ko‘z qilmoq (etmoq) – “maqтанmoq”; “ko‘rsatmoq” semalarining metaforik ko‘chishidan hosil bo‘lgan takroriy so‘z ko‘rinishidagi FM: Daho qo‘lidagi qog‘ozni *ko‘z-ko‘z qildi...* Shoirlar shu bahona o‘zlarini *ko‘z-ko‘z qilgisi* keddi. (Momo er qo‘shig‘i) Olloyor suvni elga *ko‘z-ko‘z qildi*. (Oydinda yurgan odamlar) Bakovul shunday deya bir yirtim qizil matoni *ko‘z-ko‘z etdi*. (Ot kishnagan oqshom)

Ko‘z olmaslik (uzmaslik) – O‘TILda ushbu FM “tikilgan holda, ko‘zini olmay qaramoq” ma’nosida berilgan: Bo‘ri polvon qabatidagi mehmondan *ko‘z olmadi*. Nasim polvonga qayrilibda qaramadi!.. Abray polvon Tilovberdi polvon ko‘zlaridan *ko‘z olmadi*. (Yulduzlar mangu yonadi) Tarlondan *ko‘z uzmadim*. (Ot kishnagan oqshom) U olislardan *ko‘z uzmaydi*, kipriklarini-da piri-piratmaydi... Oymomo dasturxondan *ko‘z olmadi*. (Oydinda yurgan odamlar).

Ko‘zi ochilmoq – mazkur FM sub’ektning aqli joyiga kelishi, o‘ylab ish qilishga o‘tishini anglatadi: Buni bir tiqib qo‘yaylik, *ko‘zi ochiladi*. (Ot kishnagan oqshom)

Ko‘ziga qaramoq – so‘zlovchining tinglovchini xushyorlikka, ehtiyotkorlikka chaqirishi, chalg‘imaslikka undashi: Jo‘ra boboning otida chopishni azm etdim. — *Ko‘zingga qarab chop!* — dedi Jo‘ra bobo. (Ot kishnagan oqshom) Qizlar kelinga

bo‘lishdi, bo‘z bolalar kuyovga bo‘lishdi: — *Ko‘zingga qara, ko‘zingga qara!* — deyishdi. (Oydinda yurgan odamlar)

Ko‘z o‘ngidan o‘tmoq – ushbu FMda ruhiy iztirobga tushgan qahramon o‘y-xayoli, tasavvurida sodir bo‘lgan voqealar ketma-ket gavdalanib, individuallik kasb etadi: Muxbir so‘ramish, kotib aytmiş o‘sha bandai mo‘minlar *ko‘z o‘ngidan* bir-bir *o‘tdi*: Xolliev, Saidov, To‘raeva... (Oydinda yurgan odamlar) Serjant Orziqulov jim bo‘lib qoldi. Quroldoshlari *ko‘z o‘ngidan* bir-bir *o‘tdi*. (Momo er qo‘shig‘i)

QO‘L s.t. Barmoq; “nafsini tiymoq” ma’nosidagi frazeologik metafora (O‘TIL 5-jild): *Besh qo‘lni barobar og‘izga tiqsak*, yaxshi bo‘lmas. Biroq bu erda *besh qo‘lni barobar og‘izga tiqmoq* birikmasi nafsni tiymoqni emas, aksincha, uning semantikasiga biriktirilgan “ochko‘zlik” ma’nosidagi obrazli tasvirni yuzaga keltirgan (Momo er qo‘shig‘i) **4. Imzo.** (O‘TIL, 5-jild). Rais bo‘lib ish buyurish oson, yo‘l-yo‘riqlar berish oson, qog‘ozlarga *qo‘l qo‘yish* oson! (Yulduzlar mangu yonadi) Ha, mayli. O‘rtoq Hamidov, siz yozing, bu kishi *qo‘l qo‘yib* beradi. (Ot kishnagan oqshom) Urush ishtirokchilari Daho yuzigada qaramay *qo‘l qo‘yib* berdi. (Momo er qo‘shig‘i) **5. Har kimning o‘ziga xos ish usuli, uslubi, ishi, xatti-harakati** (O‘TIL, 5-jild); urinishi kabilarni aks ettiruvchi metaforik ifoda: Jonibek polvon Shodi polvonni *birinchi qo‘ldayoq* chap oyog‘iga sirtidan ildirib ko‘tarib, to‘lg‘ab urdi. (Yulduzlar mangu yonadi)

BOSH Otlar bilan birikib, ayni paytda, polisemantik zanjirni tashkil qiladi hamda adib kontekstida inson qismatini ifodalaydi: — Xo‘p, podani qaerda boqasan? Tevarak-*boshing* paxta, imorat... (Momo er qo‘shig‘i) O‘lim barimizning *boshimizda* bor savdo. (Ot kishnagan oqshom) — Uyalsang-uyalmasang, bu barimizning *boshimizda* bor savdo, — dedi yanga bo‘lmish. (Oydinda yurgan odamlar).

OYOQ Chet, chekka; quyi tomon; etak (O‘TIL, 3-jild). “Oyoq” leksemasi kompozitsiya usulida (*yolg‘izoyoq*) “yo‘l” leksemasi bilan birikib, antropo-zoomorf metaforani hosil qiladi: *Yolg‘izoyoq yo‘l*. (Yulduzlar mangu yonadi).

Oyoq bilan bog‘liq shakllangan metaforik ifodalar: **Buzug‘oyoq (suyug‘oyoq)** – evfemik metafora: axloqsizlik, buzuqlik ishlariga haddan tashqari beriluvchan (O‘TIL, 4-jild) ayol va erkak. Hazar boisi, rais *buzug‘oyoq* bo‘ldi... (Yulduzlar mangu yonadi) Boisi, elda Munavvar *suyug‘oyoq* ayol, demish gap oralab yurdi... (Oydinda yurgan odamlar) **Og‘iroyoq** – metaforik evfema bo‘lib, homilador, farzand kutayotgan ayolga nisbatan ishlatiladi: Ammo, ayoli *og‘iroyoq* arafasida ekanini o‘yladi. Shashtidan qaytdi. (Oydinda yurgan odamlar) **Oyoq ilmoq** – ushbu dialektal ibora harakatlanayotgan ulov yoki shaxsning bir nuqtada to‘xtashiga ishora sifatida: Bo‘ri polvon *oyoq ildi*. (Yulduzlar mangu yonadi) Tarlon bir-bir bosib, *oyoq ildi*. (Ot kishnagan oqshom) Hamishagiday salom umidlanmay o‘tmish Ismat ovchi xiyol o‘tib *oyoq ildi*. (Oydinda yurgan odamlar) Mashina Daho mavlud topmish uy oldida *oyoq*

ildi. (Momo er qo‘shig‘i) **Oyog‘i bilan yozmoq** – so‘zlovchining ish-harakatni oson, qiyinchiliksiz bajarishini ta‘kidlash orqali suhbatdoshi ishidan qoniqmaslik va suhbatdoshi faoliyatiga past baho berish: Siz mening bitta she‘rimniyam yozolmaysiz! Lekin men sizning maqolalaringizni *oyog‘im bilan yozib tashlayman!* (Momo er qo‘shig‘i)

QULOQ Suvning anhor, kanal, o‘qariq va sh.k. dan kichik suv yo‘liga, ariqlarga tarmoqlanib o‘tadigan joyi; dahana (O‘TIL, 5-jild). Bunda odamning qulog‘i va arig‘ning qulog‘i shakliy o‘xshashlikka ko‘ra bir xil bo‘lib, lisoniy metaforani hosil qiladi. Kolxoz mirobi suv yoqalab toqqa chiqib ketdi. *Quloqlarda haftalab och-nahor yotdi.* (Yulduzlar mangu yonadi)

1.2. Insonning tashqi ko‘rinishi asos bo‘lgan metaforik ma‘nolar:

KAL Sochi butunlay yoki qisman to‘kilib ketgan kishi (O‘TIL, 2-jild). Bizning fikrimizcha, “kal” so‘zi metaforizatsiya jarayoniga uchrab, adib kontekstida kambag‘al ma‘nosiga teng bo‘ladi: Bildim, el, Ziyodulla kal, *otangni ko‘rdim — ahmadi forig‘, onangni ko‘rdim — tovonni yoriq* (ushbu matal “zoti past, kambag‘al” ma‘nosida kelib, paremiologik metafora namunasidir), *ko‘rpangga qarab oyoq uzat* (o‘z imkoniyatidan kelib chiqib ish qilishga undovchi, shuningdek, kambag‘alligini pisanda qiluvchi FM), dedi. O‘zing bir sag‘ir bo‘lsang, senga kim qo‘yibdi otni, dedi. Yana tag‘in *kal* bo‘lsang, kalga otim nimam, dedi. *Kalga* eshak ham bo‘ladi, dedi.

NOGIRON ko‘chma Yaroqsiz, ojiz bo‘lib qolgan, kamchiligi bo‘lgan (O‘TIL, 3-jild). Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi? Yo‘q, bular *nogiron-nogiron giyohlar!* (Oydinda yurgan odamlar)

1.3. Inson holati va uning tana a‘zolari harakati asos bo‘lgan metaforik ma‘nolar:

BO‘ZLAMOQ ko‘chma Mungli, dardli tovush chiqarmoq; nola qilmoq (O‘TIL, 1-jild), ya‘ni “yig‘lamoq” ma‘nosidagi shevaviy bo‘yoqdor muallif metaforasi. T.Murod olamining ko‘rish sektorini belgilab beradi: Davrada changqovuz *bo‘zladi.* (Yulduzlar mangu yonadi) Polapon bir yon bo‘ldi, beshigi bir yon bo‘ldi! To‘rg‘ay boshlari uzra charx urib *bo‘zladi.* (Momo er qo‘shig‘i)

KO‘ZI ILINMOQ // KO‘ZI KETMOQ – O‘TIFLda “uxlay boshlamoq” ma‘nosida berilgan bo‘lib, sinonimik munosabatdagi FM: “Vaqt” eshittirishlari-da ado bo‘ldi. Shunda, to‘shakka o‘tib yotdim. *Ko‘zim ilindi, ko‘zim ketdi.* (Ot kishnagan oqshom)

BELI SOVIMOQ // TANASI SOVIMOQ – ish sur‘ati, ishlovchi mayli-ishtiyoyoqining pasayishiga nisbatan “beli sovimoq” hamda “tanasi sovimoq” (inson o‘lgach butun a‘zolar soviydi), ya‘ni inson o‘limi bilan bog‘liq iboralar. Ularni T.Murod idiolektining xos FMIlari deb baholash mumkin: El, ishga bir kelib, bir kelmay yurishimizni ko‘rsa, ishdan *beli soviydi...* Bizni bu dunyoga bog‘lab qo‘ygan emas,

hazrati Xizr bovajonim! Bir kunmas-bir kun *tanamiz soviydi*. (Oydinda yurgan odamlar)

1.4. Insonning jismoniy holati asos bo'lgan metaforik ma'nolar:

TELBA Telbaga xos, telbalikni aks ettiruvchi; ma'nosiz va tartibsiz (O'TIL, 4-jild). Yurdi-yurdi... Tanqidga o'tdi. *Telba-teskari* gaplardan iborat maqolalar yozdi. (Momo er qo'shig'i) Ijirg'anib-ijirg'anib, bir-ikki *telba-teskari* chillar berdi. (Yulduzlar mangu yonadi)

TENTAK Aqldan ozgan, telba, devona; jinni. Shuningdek, "Jayraxonadan qochmoq" varianti ham shu mazmuni ifodalaydi: Abil tentakni endi ko'rayotganlar hayratdan ko'zlari olaydi. — Yo pirim-e, *urib ketgan tentak*, — deya kuldi. — *Jayraxonadan qochgan*, — deya kuldi. (Yulduzlar mangu yonadi)

LANJ //MAG'ZAVA Tobi aynigan, bo'shshagan (O'TIL, 2-3-jildlar), shuningdek, harakati juda sekin odam: ...Shu, Boboqul bilan Mamat polvon juda *lanj* ekan, nima dedingiz, Bo'ri polvon? — E, siz so'ramang, men aytmayin! — dedi Bo'ri polvon. — *Mag'zava, lanj* ham gapmi, *mag'zava!* (Yulduzlar mangu yonadi)

1.5. Insonning hayot bosqichlari asos bo'lgan metaforik ifodalar:

QARI *ko'chma* Uzoq o'tmishga ega (O'TIL, 5-jild). Qoplon otamiz tok jo'yani ishladi. Tok ostini aylana qilib kovladi... *Qari* toklarni kundakov qildi. (Oydinda yurgan odamlar)

YUZIDAN QON TOMMOQ – yosh, navqiron ma'nosidagi FM bo'lib, qon – bu qizil rang degani. O'zbeklar uchun qon rangi, ya'ni qizil rang "mangulik, jo'shqinlik, doimiy hayot" belgisini ifodalaydi: Bo'ri polvon bosh ko'tardi. Nasimga qaradi. "Qaribdi, juda qaribdi, — deya xayollandi. — Yo, men ham shunday qaridimmi? Yo'g'-e, odamlar, *yzlaringizdan qon tomadi*, deyishadi-ku..." (Ot kishnagan oqshom)

MO'YSAFID Soch-soqoli oqargan, mo'ylari oqargan (O'TIL, 2-jild). So'zmaso'z – *oqsoqol*. Eskirgan (lisoniy) metafora: Otamiz ko'ngliga tahlika tushdi: "Kim bo'ldi, bu *mo'ysafid?*" deya o'yladi. (Oydinda yurgan odamlar)

1.6. Inson kiyimlari va ularning qismlari asos bo'lgan metaforik ma'nolar:

ETAK Ba'zi narsalarning, sathning cheti, quyi tomoni, oxirgi qismi (O'TIL, 5-jild). **Bir etak** – biror ayol yoki oilaning bolasi ko'pligi nazarda tutilgan FM: Ammo xudoyim xudovando onaizor pushtini beribdi! Onaizor qo'sha-qo'sha farzandli bo'libdi! Farzandlari *bir etak* bo'libdi! (Oydinda yurgan odamlar) **Etak qoqmoq** – butunlay umid uzmoq, kechmoq (O'TIL, 5-jild). Kattalar davraga duo berilmasdanoq *etaklarini qoqib* turib ketdi. (Yulduzlar mangu yonadi) Birodarlar, chavandozlar nimaga *etagini qoqib* ketayapti? Adolatga! (Ot kishnagan oqshom)

Togʻay Murod badiiy nutqida qoʻllanilgan antropomorf metaforalar

T/s	Antropomorf metaforalar va ularning manbasi	Izohlanishi
1.	Xuddi shu daqiqada <i>koʻzlar uchrashib qoldi.</i> (Yulduzlar mangu yonadi)	Koʻz – nazar, nigoh, qarash (OʻTIL, 2-jild)
2.	Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol toʻyxonadagi voqealardan <i>koʻz-quloq boʻldi.</i> (Yulduzlar m. yo.)	Kuzatdi, xabardor boʻldi
3.	Daho qoʻlidagi qogʻozni <i>koʻz-koʻz qildi.</i> (Momo er qoʻshigʻi)	Maqtanib koʻrsatmoq
4.	Yoʻgʻe, u koʻpkarida otdan yiqilib, bir <i>koʻzi ojiz boʻp</i> qolgan, deb eshitib edim. (Yuld. m. yo.)	Koʻrish qobiliyati (OʻTIL, 2-jild)
5.	Xoʻsh-xoʻsh deyman, olabosh, <i>Koʻzing oʻtkir,</i> qalamqosh... (Momo er qoʻshigʻi)	Koʻrish qobiliyati (OʻTIL, 2-jild)
6.	U olislardan <i>koʻz uzmaydi,</i> kipriklarini-da pirpiratmaydi... Oymomo dasturxonidan <i>koʻz olmadi.</i> (Oydinda yurgan odamlar)	Tikilgan holda, koʻzini olmay qaramoq
7.	Buni bir tiqib qoʻyaylik, <i>koʻzi ochiladi.</i> (Ot kishnagan oqshom)	Aqli joyiga kelmoq, oʻylab ish qilishga oʻtmoq
8.	Joʻra boboning otida chopishni azm etdim. – <i>Koʻzingga qarab chop!</i> – dedi Joʻra bobo. (Ot k. o.)	Xushyorlikka, ehtiyotkorlikka chaqirmoq
9.	Muxbir soʻramish, kotib aytmish oʻsha bandai moʻminlar <i>koʻz oʻngidan bir-bir oʻtdi.</i> (Oydinda yu. o.)	Ruhiy iztirobga tushgan qahramon oʻy-xayoli, tasavvurida sodir boʻlgan voqealarning ketma-ket gavdalanishi
10.	<i>Besh qoʻlni</i> barobar <i>ogʻizga tiqsak,</i> yaxshi boʻlmas. (Momo e. q.)	Barmoq; nafsni tiymoq (OʻTIL, 5-jild); ochkoʻzlik
11.	Rais boʻlib ish buyirish oson, yoʻl-yoʻriqlar berish oson, qogʻozlarga <i>qoʻl qoʻyish</i> oson! (Yuld. m. yo.)	Imzo
12.	Jonibek polvon Shodi polvonni <i>birinchi qoʻldayoq</i> chap oyogʻiga sirtidan ildirib koʻtarib, toʻlgʻab urdi. (Yuld. m. yo.)	Har kimning oʻziga xos ish usuli, uslubi, ishi, xatti-harakati, urinishi
13.	Oʻlim barimizning <i>boshimizda bor savdo.</i> (Ot k. o.)	Inson qismati
14.	<i>Yolgʻizoyoq</i> yoʻl. (Yuld. m. yo.)	Chet, chekka; quyi tomon, etak
15.	Hazari boisi, rais <i>buzugʻoyoq</i> boʻldi... (Yuld. m. yo.)	Axloqsizlik, buzuqlik ishlariga haddan tashqari beriluvchan erkak
16.	Boisi, elda Munavvar <i>suyugʻoyoq</i> ayol, demish gap oralab yurdi... (O. yu. o.)	Axloqsizlik, buzuqlik ishlariga haddan tashqari beriluvchan ayol
17.	Ammo, ayoli <i>ogʻiroyoq</i> arafasida ekanini oʻyladi. Shashtidan qaytdi. (O. yu. o.)	Homilador, farzand kutayotgan ayol
18.	Boʻri polvon <i>oyoq ildi.</i> (Yu. m. yo.). Tarlon bir-bir bosib, <i>oyoq ildi.</i> (O. k. o.)	Harakatlanayotgan ulov va shaxsning bir nuqtada toʻxtashi
19.	Siz mening bitta sheʻrimniyam yozolmaysiz! Lekin men sizning maqolalaringizni <i>oyogʻim bilan</i> yozib tashlayman! (M. e. q.)	Oson, qiyinchiliksiz bajarish

20.	Kolxoz mirobi suv yoqalab toqqa chiqib ketdi. <i>Quloqlarga haftalab och-nahor yotdi.</i> (Yuld. m. yo.)	Suvning anhor, kanal, o'qariq va sh.k. dan kichik suv yo'liga, ariqlarga tarmoqlanib o'tadigan joyi
21.	Bildim, el Ziyodulla kal, <i>otangni ko'rdim – ahmadi forig', onangni ko'rdim – tovonni yoriq, ko'rpangga qarab oyoq uzat,</i> dedi. O'zing bir sag'ir bo'lsang, kalga otim nimam, dedi. <i>Kalga eshak ham bo'ladi,</i> dedi. (O.k.o.)	Zoti past, kambag'al
22.	Mana bular nima? Teraklarmi? Yo'q, bular <i>nogiron-nogiron giyohlar.</i> (O.yu.o.)	Yaroqsiz, ojiz bo'lib qolgan, kamchiligi bo'lgan
23.	Davrada <i>chanqovuz bo'zladi.</i> (Yu. m. yo.)	Yig'lamoq
24.	Shunda, to'shakka o'tib yotdim. <i>Ko'zim ilindi, ko'zim ketdi.</i> (O. k. o.)	Uxlay boshlamoq
25.	El, ishga bir kelib, bir kelmay yurishimizni ko'rsa, ishdan <i>beli soviydi...</i> Bizni bu <i>dunyoga bog'lab qo'ygan emas,</i> hazrati Xizr bovajonim! Bir kunmas-bir kun <i>tanamiz soviydi.</i> (O. yu. o.)	Ish sur'ati, ishlovchi mayli-ishtiyoqining pasayishi; inson o'limiga ishora
26.	Yurdi-yurdi... Tanqidga o'tdi. <i>Telba-teskari gaplardan iborat maqolalar yozdi.</i> (M. e. q.)	Telbaga xos; ma'nosiz va tartibsiz
27.	Abil tentakni endi ko'rayotganlar hayratdan ko'zlari olaydi. – Yo pirim-ye, <i>urib ketgan tentak,</i> - deya kuldi. – <i>Jayraxonadan qochgan,</i> - deya kuldi. (Yu. m. yo.)	Aqldan ozgan, telba, devona; jinni
28.	Qoplon otamiz tok jo'yani ishladi. Tok ostini aylana qilib kovladi... <i>Qari toklarni kundakov qildi.</i> (O.yu.o.)	Uzoq o'tmishga ega
29.	Bo'ri polvon bosh ko'tardi. Nasimga qaradi. "Qaribdi, juda qaribdi, - deya xayollandi. – Yo, men ham shunday qaridimmi? Yo'g'-ye, odamlar, yuzlaringizdan qon tomadi, deyishadi-ku..." (O. k. o.)	Yosh, navqiron
30.	Ammo xudoyim xudovando onaizor pushtini beribdi! Onaizor qo'sha-qo'sha farzandli bo'libdi! Farzandlari <i>bir etak bo'libdi!</i> (O.yu.o.)	Biror ayol yoki oilaning bolasi ko'pligi
31.	Kattalar davraga duo berilmasdanoq <i>etaklarini qoqib turib ketdi.</i> (Yu.m.yo.)	Butunlay umid uzmoq, kechmoq
32.	- Ukkag'ar Hotam polvon-ye! Sizga o'xshaganlarni manavi <i>chinachog'im bilan yiqitaman,</i> ha! (Yu. m. yo)	Hech qanday qiyinchiliksiz yiqitmoq, engmoq
33.	Jiyan egilib, Daho yuziga qaradi. Qaradi-qaradi, ko'ngli buzildi. – Tog'a, <i>qora ko'zning yoshi yomon, qora qoshning ohi yomon!</i> (M. e. q.)	Farzand va ayol

Izoh: T.Murod badiiy nutqida jami 282 ta (58%) antropomorf metaforalar aniqlangan.

II. Antroposentrik metaforaning ikkinchi turi “borliq→inson” yo‘nalishida bo‘lib, biz ularni quyidagi turlarga ega deb hisoblaymiz:

2.1. Zoomorf metafora (ZM). Hayvonlarga xos belgilarning insonga ko‘chirilishidan yuzaga kelgan metafora. Antroposentrik metaforaning mazkur turida hayvonlar hamda ularning ayrim tana a‘zolari metaforik o‘xshashlikni hosil qiluvchi asosiy jihat hisoblanadi. Bu tur metaforalarda *ot, it, bo‘ri, qo‘y, taka, ho‘kiz, ilon, sher, eshak, sigir, g‘oz, mayna, to‘ti, sichqon, yol, qanot, egar* kabi ko‘plab leksemalar inson va uning turli holat va xarakter-xususiyatlarini ifodalaydi hamda zoonimik komponentli birikmalar, antroponimlar, paremiologik ko‘rinishdagi zoomorfik metaforalarni hosil qiladi. Masalan:

1. *Bo‘ri* qiyofni qizlarga gartdak-gartdakdan berdi; Momoqizga mo‘lroq berdi. Bo‘ridan *it ham baraka topmaydi!* — dedi. (Yulduzlar mangu yonadi)

2. Bo‘ri polvon endi orzu bilan ovundi: o‘g‘li Tilovberdi balog‘atga etyapti — *ot o‘rnini toy bosadi...* (Yulduzlar mangu yonadi)

3. — Manavi odamni taniysizmi?! — dedi kapitan katta. Bo‘zbolalar men tarafga *sigir qarash* qildi. (Ot kishnagan oqshom)

4. Qimmat momolar birovlar muvaffaqiyatini ko‘rsa... *ichini it tirnaydi.* (Oydinda yurgan odamlar)

Nasriy matnda poetonimlar (badiiy asarda qo‘llanilgan qahramonlar, asar badiiy syujetida alohida ahamiyatga ega ob‘ektlar nomlari) ko‘p hollarda asar g‘oyasini ta‘kidlash, unda etakchilik qilgan uslubni bo‘rttirish maqsadida qo‘llaniladi. Zero, nasriy asarlarda ismlarning “so‘zlovchi” nom vazifasida kelishi eng ko‘p uchraydigan hodisa hisoblanadi [Magazanik, 1978].

Yuqorida keltirilgan birinchi matnda T.Murod bir vaqtning o‘zida Bo‘ri antroponimi orqali shu nom bilan atalgan qahramonning salbiy xislatlarini (bo‘ridagi yovuzlik, qonxo‘rlik, shavqatsizlik Bo‘rining qizlar nazdidagi xasisligiga tenglashtirilmogda) bo‘rttirmogda. Ya‘ni “yozuvchi o‘z qahramonlariga ularning nomini bamisoli ko‘zgu qilib tutgan – bu ko‘zgu ularning insoniy qiyofasini aniq va ro‘y-rost ko‘rsatish” [Xudoyberganova, 2016:8] da qo‘l kelgan. Ayniqsa, so‘zlashuv uslubida faol bo‘lgan “*it ham baraka topmaydi*” ifodasi esa yozuvchi tilining xalqchilligini, xalqqa yaqinligini ko‘rsatib turuvchi zoonimik komponentli birikmadir. Ikkinchi matndagi “*ot o‘rnini toy bosadi*” paremiologik shaklli zoomorf metaforada *ot* – ota, *toy* esa uning farzandiga ishora. Uchinchi matn kontekstidagi “*sigirqarash*” (olayib, yoqimsiz, tahdidnamo, tanimagandek qarash) kompozitsiya (ot+harakat nomi) usulida hosil qilingan zoonimik leksema T.Murodga xos individual (xususiy) nutqiy metaforadir. To‘rtinchi mikromatnda esa, “*ichini it tirnadi*” (O‘TIFLda: “*ichini mushuk tatalayapti*” frazemasining varianti sifatida “yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq”; O‘TILda esa “nihoyatda bezovtalanmoq,

tinchsizlanmoq” ma’nosida) frazeologik zoomorf metaforasi, shuningdek, “o‘z yog‘iga o‘zi qovuriladi”, “jizg‘anak bo‘ladi”, “kuyib kul bo‘ladi” FMLari bilan yozuvchi Qimmat momoning hasadgo‘y va badniyat siyratiga chizgi beradi.

2.2. Fitomorf metafora (FM)lar antroposentrik metaforalar sirasida o‘ziga xos mavqeyi bilan ajralib turuvchi, daraxt, o‘simliklar va ularning qismlari nomini anglatuvchi, ya’ni fitonimik leksikaning insonga nisbatan qo‘llanishi natijasida hosil bo‘lgan metaforik nomlanishi bo‘lib, insonning borliq haqidagi bilimlari yaxlitligini ta’minlaydi. Ma’lumki, zamonaviy adabiyotda ham, mumtoz adabiyotda ham ma’shuqaga nisbatan *arg‘uvon, sarv, gul, lola, shamshod* kabi qator so‘zlar insonga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, T.Murod ijodida ham *bodom, gul, tomir, tayoq, chinor, tikon, to‘nka, kurtak* singari ko‘plab fitonimlar metaforik ifoda vazifasini bajargan. Jumladan, — Odamlar-u odamlar, *tog‘da bitgan bodomlar*, eshitmadim demanglar! Bugun ha-a-amma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to‘yiga, he-ye-ye-yey! Chu, jonivor! (Yulduzlar mangu yonadi) misolidagi *tog‘da bitgan bodomlar* (uzoq-yaqinda yashayotgan odamlarga ishora) xalqona, umumnutqiy metafora bo‘lib, “chorlov” mazmunli fitomorfik metafora shaklida tilimizda yashaydi.

2.3. Kosmomorfik metafora (KM) – insonga nisbatan qo‘llanuvchi osmon jismlari, yoritkichlar nomi asosida hosil qilingan metafora (ma’lumki, tilimizdagi mazkur leksik semantik guruh (LSG)ga mansub birliklar H.Eshonqulov [Eshonqulov, 2008:116], A.Primov, M.Jo‘raev, Z.Yunusova [Yunusova, 2004:22] kabi tilshunolar tomonidan o‘rganilgan).

Kosmomorf metafora biz tahlil qilayotgan T.Murod nasriy nutqida *oy, quyosh, oftob, cho‘lpon, yulduz, zuhro, osmon, nur, shu‘la* kabi leksemalar ma’nosini metaforik usul bilan ko‘chirish natijasida hosil bo‘ladi. Masalan: *Oyning beti kir emish. ... Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi!* (Ot kishnagan oqshom).

“Ot kishnagan oqshom” qissasida keltirilgan tush tasviri bilan yozuvchi Ziyodulla chavandoz nuqsonidan (kalligidan) kelib chiqib, hammada ham (hatto oyda ham) nuqson borligiga ishora qiladi. Shuningdek, “Momosuluv tushimda *Cho‘lpon* edi, hushimda *Oy* edi, qo‘ynimda *Oftob* bo‘ldi!” jumlasini orqali Ziyodulla kal tushida Momosuluv *Cho‘lpon* (1 astr. Yorug‘ tong yulduzi; Zuhra, Venera. 2 ko‘chma Go‘zal, chiroyli, shahlo (ko‘z haqida). 3 *Cho‘lpon* (xotin-qizlar ismi) – O‘TIL, 4-jild) yulduzidek go‘zalligini, ko‘zini ochganida oydek chiroyini his qilgani va Momosuluv bilan baxtli yashab boshlagani, umr yo‘ldoshi uning hayotiga ham nur, ham quyosh taftini olib kirgani, Ziyodulla chavandozning Momosuluv bilan baxtli hayot kechirib boshlagani, u tufayli hayotiga mazmun kirganligi ifoda etilgan.

T.Murod qissallari tahlili shuni ko‘rsdiki, kosmonimlarga mansub birgina *yulduz* leksemasi bilan bog‘liq *yulduz sanamoq, osmon to‘la yulduz bo‘lmoq* barqaror

ifodalari, *yulduzi yonmoq*, *yulduzi so'nmoq* frazeologizmlari, *rangsiz yulduz*, *yorqin yulduz*, *mitti yulduz*, *saraton yulduzli* sifatlash va epitetlari inson tavsifini berishda hamda tasvirning badiiyligini oshirishda nihoyatda qo'l kelgan. Xuddi shuningdek, oy leksemasi asosida hosil qilingan *oy qishloq uzra osilib qoldi*; *oy balqidi*; *oy shom edi*; *oy qayrag'ochlar orasidan mo'ralab-mo'ralab turdi*; *oy tug'adi*; *oy hamsoyamiz Qulmat polvonning teraklari uchiga osilib qolgan*; *oy to'yxona uzra havolandi*; *oy o'z girdida o'rov tortibdi*; *oy bilan kun-da tutiladi*; *oy to'lishib qoldi*; *oy beti kir emish* kabi metaforik ifodalar, *oy bitsa-da, kun bitsa-da*; *oyni ko'zlamog* (O'TILdagi "olisni (uzoqni) ko'zlamog" frazemasining variantdosh shakli) FMLari, shuningdek, *oyni o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'* maqol ko'rinishidagi KMLari inson haqidagi tasavvurlarimizni yaqqollashtirish, konseptuallashtirishga yordam beradi.

Taqqos uchun misollar: Bo'ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta *elkasi er ko'rdi!* Qanday yiqildi — o'zida bilmadi! Ko'zlarini ochsa... *osmon to'la yulduz bo'ldi!*.. Bo'ri polvon so'zsiz *yulduz sanaydi!* (Yulduzlar mangu yonadi) Ushbu parchada keltirilgan "elkasi er ko'rdi" frazemasini hamda *osmon to'la yulduz bo'ldi, yulduz sanaydi* KMLari ma'nodoshlik xususiyatiga ega mualliflik metaforalari bo'lib, maydonda polvonning raqibi tomonidan mag'lub etilganligini ifodalaydi. Har bandaning *ko'kda o'z yulduzi* (har bir inson ma'lum bir orzu-umidlarini samodagi hisobsiz yulduzlarga bog'lab, ulardan kuch, madad olib yashaydi – U.X.) bo'ladi, oshna. Shu *yulduzning yongani* — *shu bandaning yonganidir*. Shu *yulduzning so'ngani* — *shu bandaning so'nganidir* (yulduzning yongani – shu insonning yutuqlarga erishishi, yutuqlarni qo'lga kiritib yashashi; yulduzning so'nishi – polvonning mag'lubiyatli holatlari, damlariga ishoradir). (Yulduzlar mangu yonadi) *Oy suzilib-suzilib boqdi* (bunda kosmoning inson belgisi ko'chirilgan, ya'ni qahramon oyga qaraganda suzilib-suzilib boqayotgan, noz-ishva bilan o'ziga qarayotgan Oymomoni his qilganligi, ayni paytda, T.Murod lirik qahramonlari (Qoplon va Oymomo) o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanganligi, tiklanganliga belgi). (Oydinda yurgan odamlar). — Sal tushing, dehqonsiz-ku! — dedi... — Ko'p minnat qilmang! Shusiz ham *oy bitsayam, kun bitsayam* ("oy chiqsa ham unga, kun chiqsa ham unga" obrazli ifodasining ekvivalenti - "hamma narsa, diqqat-e'tibor unga" (O'TIL, 2-jild) ma'nosida), dehqonga bitib yotibdi! (Ot kishnagan oqshom).

Tahlillarga ko'ra, T.Murod nasrida *quyosh* leksemasining *oftob, kun* kabi sinonimlari, *ona quyosh*; *saxiy quyosh*; *qirmizrang quyosh nurlari*; *kun beti*; *kukunga aylangan bu kun, kun qiyom bo'ldi*; *kun chiqdi*; *kun yoyildi*; *kun yondi*; *kun yaraqlab ketdi*; *kun ko'z ochirmadi*; *kun terak bo'yi bo'ldi*; *kun qaytdi*; *kun sariq berdi* obrazli jumalari, *kun bermaslik*; *kun tug'di*; *kun ko'rdi* frazeologik birliklari va *quyosh zarrin kokillari* parafrasasi, shuningdek, *osmon* leksemasi yordamida hosil bo'lgan *lojuvard osmon*; *osmono'par tog'* epitetlari, *adolat osmonda*; *osmon yuzi pokiza bo'ldi*; *osmon*

gir-gir aylandi; osmon qop-qora bo'ldi; bepoyon osmon, beg'ubor osmon qop-qora qozon bo'ldi; osmon olisdan olis bo'ldi sifatlash konstruktsiyalari, *osmondan telpak tashlasa, erga tushmaydi; olamga osmondan qarab yashadi; oyog'ini osmondan keltirib maqtadi* obrazli ifodalari hamda *osmon olis, er qattiq bo'ladi* maqollari kosmonim komponentli lingvokulturologik birliklarning hosil bo'lishini ta'minlagan. Misollar: Mening *umrim* bir *kun*. Kukunga aylangan bu *kun* (ushbu she'riy parchada inson umrining ma'lum bir kuni *kun*, ya'ni zarraga o'xshatilishi Pahlavon Daho hayotining ma'no-mazmunsiz, qadrsiz (*kun* va umrning *kun*ga tenglashtirilishi)ligiga ishora). (Momo er qo'shig'i) Menga qara, *kun qiyom vaqti* ("qiyom" so'zi O'TILda "tik turish, qoyim turish; jo'nab ketish; mavjudlik" ma'nosida. Shunga ko'ra matndagi *kun qiyom vaqti* ifodasi "quyoshning tikka tushgan payti", "tush payti" ma'nosida) uyingning ustidan bir samolyot uchib o'tdimi? (Ot kishnagan oqshom). *Kun terak bo'yi bo'ldi*. (Momo er qo'shig'i). Boshimizda *kun yondi*. *Kun betiga* qarab bo'lmadi. Baliq tangasiday-baliq tangasiday qor uchqunlari yilt-yilt etdi, ko'zdan yosh oqizdi. (Ot kishnagan oqshom). Tarlonni yo'qlab qarayin dedim. Boshimni ko'tarayin dedim. Bo'lmadi, bo'lmadi! Ko'zim osmondaligicha qoldi. *Osmon olis, er qattiq bo'ldi* (qahramonning nochor ahvolda qolganligi, Ziyodulla chavandozga tevarak-atrofdan, na erdan, na osmondan yordam beradigan kishi yo'qligi)... Ko'zlarim tindi. *Bepoyon osmon, beg'ubor osmon qop-qora qozon bo'ldi!* (Ot kishnagan oqshom) – oldin beg'ubor, keyin bepoyondek (keng) tuyilgan osmonning kuzatuvchi ko'ziga bulutlar qoplab olgandek ko'rinishi.

Demak, antroposentrik metaforalar T. Murod badiiy nutqining rang-barangligi, ekspressivligini, obrazli ifodalarning mushtarakligini ta'minlovchi unsurlar bo'lib, bunda inson haqidagi tasavvurlarni yaqqollashtirish, konseptuallashtirish, inson xususiyatlari va sifatlarini ochib berishda "inson→borliq" va "borliq→inson" munosabatlari o'zining serqirraligi, murakkab tabiati bilan metaforik mazmun kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Xudoyberganova D. Til tafakkur madaniyat. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B.4.
2. Shirinova N.A. O'zbek tilida belgi-xususiyat va predmetlik ma'nolarining farqlanishida graduonimik qatorlar: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent: 2010. – 48 b.
3. Mazkur tasniflar G.Narzullaevaning dissertatsiyasidan olindi. Qarang: Nasrullaeva G. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. bo'yicha fals. do-ri diss. – Qarshi, 2019.

4. Magazanik E.B. Onomapoetika, ili “govoryashiye imena” v literature. – Tashkent: Fan, 1978.
5. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B.8.
6. Eshonqulov H.P. Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar (“Badoyi’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlari asosida). NDA. – Samarqand, 1999. – B.25; Eshonqulov H. Samovot – ishq mazhari. – Toshkent: Fan, 2008. – B.116.
7. Yunusova Z.Q. O‘zbek tilida lug‘aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (Samoviy yoritgichlar lug‘aviy guruhi asosida): Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent: 2004. – B.22.
8. Xolnazarov U. *The use of phraseological metaphors in T. Murad's story “Stars burn forever” (“Yulduzlar mangu yonadi”). Academicia an international multidisciplinary research journal. India – 2020.*